



MAMLAKATNI TASHQI SIYOSAT SIMULYAKRLARINING AGRESSIV TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH STRATEGIYASI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

¹Marat Sharipov

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti Xalqaro Munosabatlar fakulteti Siyosatshunoslik yo`nalishi 3-bosqich 3-4c-20 guruh talabasi,

²Jasur Sharofov

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti Xalqaro Munosabatlar fakulteti Siyosatshunoslik yo`nalishi 3-bosqich 3-4c-20 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7386588>

ARTICLE INFO

Received: 20th November 2022

Accepted: 29th November 2022

Online: 30th November 2022

KEY WORDS

Simulyakr, strategiya, tashqi siyosat, konstitutsion islohotlar, O'zbekiston hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ABSTRACT

Mazkur maqola simulyakr – davlatning tashqi siyosatida uning agressiv ta'siridan qanday himoyalaniş mumkinligi haqida. Agar biror davlat tashqi munosabatlarda ro'y berayotgan aktual muammolarga aniq pozitsiyasidan kelib chiqib, siyosiy uydirmadan tarkib topgan simulyakrga qarshi kurashishi uchun strategiya ishlab chiqmagan bo'lsa, bu o'sha hukumatning tashqi siyosatidagi xatolaridan biri bo'ladi. Maqolada misol tariqasida, 2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi (O'zbekiston tarkibidagi avtonom maqomdagi Respublika)da ro'y bergan konstitutsion o'zgarishlar fonida kelib chiqqan norozilik kayfiyatidagi voqealar olingan.

Asosiy o'rganish metodi sifatida, deskriptiv tahlil metodidan foydalanildi, shuningdek, yordamchi metod sifatida esa retrospektiv tahlil metodi qo'llanildi. Tadqiqot predmeti, O'zbekiston hukumatining tashqi siyosatda simulyakrlarga qarshi ishlab chiqqan strategiyasi.

Maqoladan ko'zlangan maqsad shuki, ishlab chiqilgan strategiya, tashqi siyosatda qay tariqa o'z natijasini bergani va O'zbekiston hukumatiga xalqaro maydonda bo'lgan javob reaksiyasini asosli tahlil qilishdan iborat.

Davlatni tashqi siyosatdagi simulyakrlardan himoyalaniş strategiyasi haqida gapirishdan avval, keling uning qanday ma'noni anglatishi, qayerdan kelib chiqqani haqida qisqacha to'xtalsak. Simulacrum - bu Aflotun falsafasidan olingan qadimgi yunoncha eidolon so'zining lotin tiliga tarjimai bo'lib, uning

ushbu qismida g'oyaning moddiy dunyo (mavjudlik olami)da namoyon bo'lishi bilan bog'liqligi haqida gap boradi. Platon eidos – eikon – eidolon uch muddatli modelini taqdim etadi. Eidos yoki g'oya – bu biror narsaning haqiqiy, ideal tasviri. Eikon asl nusxaga yaqin nusxadir. Eidolon



esa – bu nusxaning nusxasi, eydosning buzilgan tasviri.

Zamonaviy davrda simulacrum / eidolon tushunchasi yana falsafiy muomalaga qaytarildi va u eng ko'p fransuz faylasufi va sotsiologi Jan Bodriyar (1929-2007) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning fikricha, "Simulyator hech qachon haqiqatni yashirmaydi – bu haqiqat yo'qligini yashiradigan haqiqatdir. Simulyator haqiqatdir". (Baudrillard, 1994)

Simulyator – mavjud bo'lmagan voqelikning tasviri (tasvirning, tasviri). Axborot oqimi oshib borishi bilan simulyakr tobora ko'proq voqelikni almashtirishga, uning nafaqat asosiy, balki real voqelik (moddiy narsalar, tasvirlar, g'oyalar haqiqati) ekanligini ko'rsatishga intiladi. Simulyakr – ob'ektiv reallikda mavjud bo'lmagan narsa.

"Simulyakralar yig'indisi o'ziga xos voqelikni – Giperreallikni yaratadi, u shu qadar qizg'inki, u obyektiv haqiqat o'rnini bosadi. Haqiqiy dunyo o'rnini xayoliy dunyo, haqiqat belgilari egallaydi, ular inson tomonidan haqiqatda mavjud deb qabul qilinadi." Jan Baudrilyarning fikricha, postmodern davr giperreallik davridir. (Baudrillard, 2019)

Shuni ta'kidlash joizki, davlatlarning tashqi siyosatida, iqtisod sohasidagi marketing, reklama posterlarida simulyakrning foydalanish holatlari ko'p kuzatilgan. Ammo ularga qarshi ishlab chiqilgan strategiyalar har doim ham o'z samarasini bermagan. Bunga sabab esa himoyalanih strategiyasi har doim ham aniq, shaffof ishlagan. Himoyalanih strategiyasi nafaqat shaffof, balki hammaga ishonarli, haqiqatga yaqin bo'lishi kerak. Bunga misol qilib siyosatdan emas hozir, sportdan, aniqrog'i futboldan ko'rsatishimiz mumkin. Barchamizga ma'lumki, futbol millionlar

o'yinidir. Uning ishqibozlar ko'p va har bir detalga sinchkovlik bilan qaraydigan zukko kishilardir. O'yinda (matchda) futbolchilar o'z foydasiga standart holatlar yaratish uchun ko'p harakat qilishadi va bu holatda "simulyatsa"ni ham amalga oshirishadi. Bu atama simulyakrning ma'nodoshi. Futbol ishqibozlari buni darrov sezgach bu vaziyatdan o'z sevimli jamoasi bo'lsa, yonini olishga, raqib jamoa bo'lsa, aksincha noroziligini ko'rsatishga harakat qilishadi. Bundan maqsad futbolchilar uchun, yaratilgan vaziyatdan foydalanish va gol urib g'alaba qozonish. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bizda ikki tomon bor norozi va qo'llab quvvatlaganlovchi kishilar. Bu holatni aniq baholash uchun hozirda jahon futboli ancha rivojlanib, aniq strategiya ishlab chiqqan. Ya'ni futbolda VAR tizimidan keng foydalanish, professional chempionatlarda yo'lga qo'yildi. Uning mohiyati, bir futbolchi raqib futbolchisini, ataylab yiqitganmi, yokida raqib jamoa futbolchisi, o'zi simulyatsa qilib, yo'q reallikni bor qilib ko'rsatishga urunyaptimi, kabi mulohazalarni takroriy vaziyat orqali aniqlashtirishdir. Ya'ni o'yinni boshqarayotgan hakam, bu vaziyatni takroran ko'rgach, uni xolisona baholashidir. Agar raqib jamoa futbolchisi simulyakr qilgan bo'lsa, sariq kartochka bilan ogohlantirilib jazolanadi va aksincha. Ko'rib turganingizdek barchasi oddiy va shaffof. (Kun.uz, 2018)

Endi tashqi siyosatga kelsak, bu tizimni tashqi siyosatda ham qo'llash, samara berishi aniq. Faqat u kuzatuvchilarga ishonchli bo'lishi va shubha uyg'otmasligi kerak. Bunga misol tariqasida uzoq tarixda bo'lgan siyosiy voqealarga emas yaqin tarixda bo'lgan siyosiy voqealarga to'xtalishimiz mumkin. Ya'ni



mamlakatimizda bo'lgan 1-3-iyuldagi Qoraqalpog'iston voqelari.

Tashqi siyosatda simulyakrning qo'llanishiga qarshi himoyalani

Shu yilning, 1-3-iyul kunlari Qoraqalpog'istonning Nukus va boshqa shaharlarida aholi, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan, xalq muhokamasiga qo'yilgan, lekin amalda hali rasmiy referendum qilinib, qonuna kirmagan Konstitutsiyaviy islohotlarni notog'ri talqin qilib, namoyishlarga chiqdi va o'z noroziliklarini bildirdi. Bu namoyishlar ko'p tartibsizliklarga sabab bo'ldi. Tan olib aytish kerakki, bu yerda provokatsion kuchlarning ham qo'li bor edi. Avvaliga tinch namoyishdek ko'ringan mitinglar, tashqi va boshqa seperatistik kuchlarning aralashuvi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengeshi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi bu holatni Nukusda davlat boshqaruv organlarini egallashga harakat deb baholadi va noqonuniylikini ta'kidlaydi. Namoyishchilar Konstitutsiyaga 70-71-72-73-74-75-moddalarining o'zgartirish kiritilishi kutilayotgandan norozi ekanligini aytishdi. Bunga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti, uning hududiy bo'linmasligi, daxlsizligi va Qoraqalpog'iston xalqining roziligisiz umumiy referendum asosida ajralib chiqishi huquqqa egaligi, qonunan rasmiylashtirilgan edi. (Oliy Majlis, 2021). Bu noroziliklarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun 2-iyul kuni shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukusga yetib bordi. Jo'qorg'i Kenges deputatlari, Qoraqalpog'iston faxriylari va faollari bilan uchrashuvda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish chora tadbirlari xalq muhokamasida hali davom

etayotganligi va qoraqalpoq xalqi fikr-mulohazalarni o'rganib chiqqan holatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70,71,72,73,74,75-moddalarining amaldagi holatda qoldirilishi va o'zgarmasligini ta'kidlab shunday dedi. "Salgina e'tirozim, o'zlaring bosh bo'lib, o'zlaring tashabbus bilan chiqib, o'zlaring qo'l qo'yib, o'zlaring so'zga chiqib, o'zlaring tasdiqlagansizlar. Men har doim ochiqman-ku, nega telefon qilib aytmading, odamlar mana shunday norizo va hokazo deb. Men ham odamman-ku, menga ham Qoraqalpog'istonning ertangi kuni, tinchligi kerak-ku. Shuncha qilgan mehnatimizni sharmanda qilish kimga kerak? Maqsad-muddaomiz nima o'zi? Maqsad-muddaomiz – vatanimizda har bir odam millatidan, elatidan, tilidan, dinidan qat'i nazar o'zini erkin tutib, emin-erkin yashashi. Konstitutsion islohot faqat xalqning ertangi kunini yaxshi qilish uchun. Lekin qoraqalpoq xalqi norozi bo'lsa, bironta modda o'zgarmaydi hech qachon." (Kun.uz, 2022) Bu holatdan namoyishchilar qoniqmadi va katta tartibsizliklarga ulanib ketib, seperatistik ruhdagi davlat to'ntarilishiga urinilgan harakat bo'lshiga sabab bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev 3-iyulda, Qoraqalpog'iston Respublikasida Favqulotda holat joriy etilishi to'g'risidagi farmonni imzolashga majbur bo'ldi. (President.uz, 2022) Uning qisqacha talqini: Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida 30 kunlik favqulotda holat va komendantlik holatiga o'tganligi ta'kidlanadi. 3-iyuldan 30-avgustgacha bo'lgan barcha reyslar, uchrashuvlar, tadbirlar bekor qilindi. Namoyishni Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki Ishlar xodimlari va Milliy Gvariydiya xodimlari tinch yo'l bilan bostirishga



urunishi ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan notog'ri talqin qilindi, yoki bo'rtirilib ko'rsatildi. Bu orqali ularning maqsadi davlat xavfsizlik kuchlari namoyish, miting, noroziliklarni tinch yo'l bilan emas qonli to'qnashuvlar bilan bostirmoqchiligini, bo'lmagan reallikni bo'ldi deb ko'rsatib yaratish. Aniqroq qilib aytsak, ijtimoiy tarmoqlarda Nukus ko'chalari qonga botganligi (simulyakr), qon daryo bo'lib oqayitganligi, Qozo'g'iston Mudofaa kuchlari O'zbekiston bilan chegarada turib, Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'llab quvvatlash uchun yordamga shayligi, O'zbekiston harbiylari tinch namoyishchilarni, aholini o'qqa tutayotgani, beayov urayotgani aks ettirilgan kadrlar keng tarqaldi. To'g'ri bu fake kadrlarga ishonib, bu holatdan O'zbekiston hukumatiga noroziligi oshgan chet eldagi kuzatuvchilar, (auditoriya) ekspertlar ham topildi. Bu vaziyatda xalqaro tashkilotlar, boshqa davlat hukumatlari xalqaro siyosiy maydonda markaz e'tiborida bo'ldi. Ular bu simulyakrlarga ishonib, noroziligini bildirishadimi yo aksincha, bu fake xabarligini anglab, O'zbekiston hukumati bilan birdamliligini bildiradimi? shu kabi mulohazalar barchani qiziqtirardi. Agar ular bu simulyakrga ishonib siyosiy qaror qabul qilishsa, O'zbekistonning xalqaro maydondagi imidjiga katta putur yetardi, xuddi 2005-yildagi Andijon voqealari dan so'ng Yevropa Ittifoqi va boshqa g'arb davlatlarining kiritgan sanksiyalarini eslash kifoya, bu holat uchun. Bu safar esa bunday bo'lmadi, simulyakrga qarshi himoya tizimi bizda ancha samarali ishladi. Xususan, so'nggi yillardagi yuritilayotgan siyosatning ochiqligi, jurnalistika, ommaviy axborot vositalariga

berilgan e'tibor, joriy qilingan islohotlarning o'rni katta bo'ldi. "O'zi reallik qanday bo'ldi?" degan savolga endi keling birma-bir to'xtalsak. Nukus ko'chalari qonga botgan degan sarlavha ostidagi post keyinchalik fakeligi, bu Ichki Ishlar xodimlari tomonidan namoyishchilarni ajratib olish va ularni tarqatish uchun ishlatiladigan qizil rangdagi suyuqlik ekanligi ko'rsatildi. (Kun.uz, 2022) Qo'zo'g'iston Respublikasi Mudofaa kuchlari, O'zbekiston bilan chegara hududda turib, Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'llab quvvatlash uchun yordamga shayligi haqidagi video tasvirlar esa bu joriy yildagi Qozog'istondagi yanvar voqealaridan olingan kadrlar seperatistlarning o'zi tomonidan tarqatilganligi, O'zbekiston Harbiylari tinch namoyishchilarni, aholini o'qqa tutayotgani, beayov urayotgani aks ettirilgan kadrlar haqiqattan uzoqligi ta'kidlandi. (Markaz, 2022) 1-3-iyul voqealaridan so'ng, Qozog'iston Respublikasi, (president.uz, 2022) Qirg'iziston Respublikasi, (president.uz, 2022) Yevropa Ittifoqi, (president.uz, 2022) Tojikiston Respublikasi, (president.uz, 2022) Turkiya Respublikasi, (president.uz, 2022) Rossiya Federatsiyasi, (president.uz, 2022) O'zbekiston bilan birdamliligini, inson huquqlari yuqori darajaga chiqarilganligini va namoyishlarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zi borganligini yuqori baholashini ta'kidlab qo'shimcha bayonotlar berishdi. Bu tadbirlarning barchasi O'zbekistonda tashqi siyosatda simulyakrlardan himoyalani tizimi samarali joriy qilinganidan dalolat beradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek professional futbolda



samarali foydalanilayotgan VAR tizimining tashqi siyosatdagi qiyosiy aksidir.

Shuni tan olib aytish kerakki, simulyakrga qarshi ishlab chiqilgan tizim bizda ancha yaxshi ishladi, ya'ni xuddi futboldagi kabi, vaziyatni takroran, qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatdi. Noto'g'ri ma'lumotlarni esa haqiqatdan yiroq ekanligi ta'kidlanib, reallik qanday bo'lganligi tushuntirib bera oldi. Fake kadrlar va xabarlar qayerdan olinganligi ham, asosi boshqa ekanligi ham ko'rsatib berilib, kuzatuvchilarni xolisona baho berish kerakligi eslatib o'tildi. Kuzatuvchilar (Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Yevropa Ittifoqi Tojikiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi) ham

buni tushunib, anglab noroziliklarini emas, barchasi shaffofligini tan olib O'zbekiston hukumati to'g'ri yo'lda ekanligini ta'kidlashdi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston hukumati boshqa davlatlarning tashqi siyosatdagi, simulyakrlari va uning agressiv oqibatlariga qarshi ancha mukammal tizim ishlab chiqa oldi. Yuqorida keltirilgan joriy yilda bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston voqealari bunga yorqin misoldir. Bu nimani anglatadi? Bu mamlakatimizda o'tmishda bo'lgan voqeahodisalardan to'g'ri xulosa chiqarilib, chora tadbirlar qilinganligini va bu islohotlar amalda foyda berayotganidan dalolatdir.

References:

1. Baudrillard, J., 1994. Simulacra and Simulation. Michigan st: University of Michigan Press 1-31.
2. Baudrillard, J., 2019. The Postmodern Simulation. Misan Journal for Academic studies, pp. 614-634.
3. Kun.uz, 2018. VAR tizimi futbol qoidalariga kiritildi. [Online] Available at: <https://kun.uz/uz/news/2018/03/03/var-tizimi-futbol-koidalariga-kiritildi>
4. Kun.uz, 2022. "Biz qurol ishlatmagandik, lekin...". [Online] Available at: <https://www.youtube.com/watch?v=Wy3G57U4gnc&t=205s>
5. Kun.uz, 2022. Shavkat Mirziyoyev: "Qoraqalpoq xalqi norozi bo'lsa, birorta modda o'zgarmaydi. [Online] Available at: <https://kun.uz/uz/news/2022/07/02/shavkat-mirziyoyev-qoraqalpoq-xalqi-norozi-bolsa-bironta-modda-ozgarmaydi-video>
6. Markaz, 2022. Qoraqalpog'iston voqealari: xronologiya va feyklar | Markaz. [Online] Available at: https://www.youtube.com/watch?v=_ia1TGyhjYc
7. Oliy Majlis, 2021. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Nashriyoti-matbaa ijodiy uyi ed. Toshkent-O'zbekiston: O'zbekiston.
8. president.uz, 2022. O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlari bo'lajak sammitga tayyorgarlikning borishini muhokama qildilar. [Online] Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5311>
9. president.uz, 2022. O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari ikki tomonlama kun tartibining dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar. [Online] Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5310>



10. president.uz, 2022. O'zbekiston va Rossiya yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar. [Online]

Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5317>

11. president.uz, 2022. O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar. [Online]

Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5314>

12. president.uz, 2022. O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari telefon orqali muloqot qildilar. [Online]

Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5316>

13. President.uz, 2022. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida favqulodda holat joriy etish to'g'risida. [Online]

Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/5306>

14. president.uz, 2022. Yevropa kengashi Prezidenti Yangi O'zbekistondagi demokratik yangilanishlar dasturini qo'llab-quvvatladi. [Online]

Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/5312>